



**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA ALISHER NAVOIY
HAYOTI VA IJODINI O'RGANISH – IJTIMOIIY PEDAGOGIK
MUAMMO SIFATIDA**

Rustamova Lobarxon Ibragimovna

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tuman 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi ona
tili va adabiyot fani o'qituvchisi, ADPI mustaqil tadqiqotchisi

Telefon: +998932624324. Elektron pochta: lobarrustamova1311@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati tahlil qilingan. Alisher Navoiy asarlarini o'qitishning nazariy va metodik asoslari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda Milliy o'quv dasturi talablaridan kelib chiqqan holda adabiy ta'limni tashkil etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, adabiyot ta'limida fanlararo integratsiya, XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil va kreativ fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar tahlil etilgan. PISA xalqaro baholash dasturining talab va mezonlari asosida o'quvchilarning o'qish savodxonligi hamda badiiy matnni tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Navoiy, adabiyot, ta'lim, pedagogika, kitobxonlik, integratsiya, savodxonlik, kreativlik, tahlil, kompetensiya, PISA, kommunikatsiya, mustaqil ta'lim, meros.

Аннотация. В данной статье проанализировано социально-педагогическое значение изучения жизни и творчества Алишера Навои в общеобразовательных школах. Освещены теоретические и методические основы преподавания произведений Алишера Навои, а также вопросы организации литературного образования с учетом требований Национальной учебной программы и современных педагогических технологий. Кроме того, рассмотрены подходы, направленные на межпредметную интеграцию в литературном образовании, формирование навыков XXI века, развитие самостоятельного и креативного мышления учащихся. На основе требований и критериев международной программы оценки PISA изучены возможности развития читательской грамотности учащихся и компетенций анализа художественного текста.

Ключевые слова: Навои, литература, образование, педагогика, чтение, интеграция, грамотность, креативность, анализ, компетенция, PISA, коммуникация, самостоятельное обучение, наследие.

Abstract. This article analyzes the socio-pedagogical significance of studying the life and works of Alisher Navoi in general secondary schools. The theoretical and methodological foundations of teaching Alisher Navoi's works, as



well as issues of organizing literary education in accordance with the requirements of the National Curriculum and modern pedagogical technologies, are discussed. The study also examines approaches aimed at interdisciplinary integration in literary education, the development of 21st-century skills, and the enhancement of students' independent and creative thinking. Based on the requirements and criteria of the PISA international assessment program, the possibilities for developing students' reading literacy and competencies in literary text analysis are explored.

Key words: Navoi, literature, education, pedagogy, reading, integration, literacy, creativity, analysis, competence, PISA, communication, independent learning, heritage.

Jamiyatdagi ko'plab ijtimoiy fanlar, ijtimoiy sohalarning vujudga kelishida, ularning taraqqiy topib, alohida ijtimoiy ong shakllaridan biriga aylanishida badiiy adabiyotning o'rni beqiyos. Ijtimoiy fanlar orasida qadimiy va bugungi kunda yetakchi sanalgan falsafa, pedagogika, filologiya sohalari va hatto tarix fani ibtidosi adabiyot bilan bog'liqlikdir. Shuningdek, bu sohalarni o'rganishda, tadqiq etishda va rivojlantirishda bevosita adabiyotga murojaat qilingan, hozir ham shunday va bu yana davom etadi. Xususan, pedagogika va adabiyotning chambarchas bog'liqligi, vazifa jihatdan yaqinligi uzoq o'tmishdan e'tirof etib kelinadi. Pedagogika ta'lim va tarbiyaning ilmiy hamda amaliy asoslarini tadqiq etsa, adabiyotning vazifalaridan biri uning didaktik funksiyasi, ya'ni bilim berish hamda axloqiy-estetik tarbiyalash vazifasidir. Shu ma'noda pedagogika va adabiyot mushtarak maqsad hamda vazifalar bilan uzviy bog'lanadi, bir-birini to'ldiradi, o'zaro ta'sir orqali rivojlanadi. Ularning o'zaro ta'siri pedagogik nuqtai nazardan insonni tushunish, pedagogik voqelikni idrok etish bilan bog'liq kishilik hayotining muhim tendensiyasini aks ettiradi. Bu yo'nalishdagi harakatlar mamlakat milliy manfaatlariga mos avlodni yetishtirish maqsadini ro'yobga chiqarish uchun asos bo'ladi. Milliy tarbiyani yo'lga qo'yish, samarani yuzaga chiqarish vositalaridan biri – kitob, kitobxonlik, badiiy adabiyot. Badiiy adabiyotning, yuqorida qayd etilganidek, vazifasiga ko'ra pedagogikaga eshligi, ikkinchi tomondan, san'atning bir turi sifatida insonning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga da'vat etilganligi uni bu boradagi eng asosiy, birlamchi omil etib o'rta chiqaradi.

Bir so'z bilan aytganda, badiiy adabiyot ijtimoiy intellektni shakllanishiga zamin hozirlaydi. Shuningdek, o'zgalar harakatlariga axloqiy va estetik baho berishga o'rganadilar. Shu bois mamlakatimizda badiiy adabiyotga, kitob mutolaasiga hukumat miqyosida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakat miqyosida Prezident qaror, farmoyishlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bu boradagi birlamchi metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan qabul qilingan





“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da belgilangan to‘rtinchi yo‘nalishning “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish” deb nomlangan beshinchi bandidagi “Jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” kabi qaydlar bevosita kitob mutolaasi, badiiy adabiyot bilan ham bevosita bog‘liq. Bu kabi yuksak ma’naviy fazilatlar ta’lim jarayonida boshqa pedagogik tadbirlar sirasida yoshlarda kitobxonlik madaniyati, milliy va jahon adabiyotining sara asarlarini o‘qib, o‘rganish jarayonida tarbiyalanishi hammaga ayon haqiqat.

Bu boradagi tarixiy hujjat o‘laroq millat ma’naviyatini yuksaltirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori mamlakat ijtimoiy hayotida muhim voqea bo‘ldi deyish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori ham mohiyatan yana kitob olamiga yoshlarni, umuman millatni oshno qilishda va bu orqali inson botiniy tarbiyasini yo‘lga qo‘yishda Yurtboshimiz e’lon qilgan hujjatlarga kamarbastalik nishonasi bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari 2019-yil 19-martda yoshlarga oid davlat siyosatiga taalluqli ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha beshta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Undagi to‘rtinchi tashabbus yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan.

Ushbu me’yoriy hujjatlar metodist va pedagog olimlar, amaliyotchi o‘qituvchilar oldiga milliy va jahon adabiyoti namoyandalari bo‘lmish adiblarning ijod namunalarini pedagogik nuqtai nazar bilan tadqiq qilish, o‘rganish va o‘qitish zaruratini ko‘ndalang vazifa qilib qo‘ymoqda.

O‘zbekistonda xorijiy tajribadan foydalanilgan holda Milliy o‘quv dasturi ishlab chiqildi. Bu haqda Prezident Sh.M. Mirziyoyevning “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (PF-6108-son, 06.11.2020) farmonida so‘z boradi.

Bugungi kunda o‘qitishdan asosiy maqsad bilim, malaka va ko‘nikmalarni to‘plashdan tashqari, uni hayotiy faoliyatda ham qo‘llash nazarda tutilmoqda. Ana





shu maqsadda mustaqil o'rganishni, bilimlarini takomillashtira oladigan ijodkor, faol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan.

O'zbek adabiyotshunosligida Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar talaygina bo'lsa-da, ammo uning hayoti va ijodi yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar unchalik ko'p emas.

A. Hasanovanning "Yuqori sinflarda Alisher Navoiyning hayoti va ijodini o'rganish" mavzusidagi dissertatsiyasida "Xamsa" dostonlarini o'rganish", "Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganish" kabi mavzular o'rganilgan. Ushbu dissertatsiyada tadqiqotchi o'qituvchi shaxsi haqida to'xtalib o'tadi: "Garchi o'rta maktab o'quv dasturi o'quvchilari Navoiy biografiyasiga oid bo'lgan hamma masalalar bilan tanishtirishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ymasa ham, o'qituvchi shoir hayoti va ijodining eng nozik nuqtalarigacha o'rganib chiqqan bo'lishini talab qiladi".

Olim o'qitishning yangi usul va metodlarini qo'llash bilan birga, o'z fikr-mulohazalarini dalillar bilan asoslaydi: "Navoiyning lirik asarlarini tahlil etishda ham, "Farhod va Shirin" dostonining g'oyaviy mazmuni, obrazlari, badiiy xususiyatlarini o'zlashtirishda ham eng qulay yo'l sharhli o'qish va suhbat metodi asosida darslarni uyushtirishdan iboratdir".

Alisher Navoiy asarlarining umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilishi bo'yicha tadqiqotchi Maxsuda Sariboyevaning ilmiy izlanishlariga e'tibor qaratmoqchiman. Olimaning "Umumta'lim maktablarida Alisher Navoiy epik asarlarini zamonaviy usullarda o'rgatish" ("Xamsa" asari misolida) mavzusidagi tadqiqotida Alisher Navoiy asarlarini zamonaviy usullarda o'qitishning yoshlar tarbiyasiga bevosita ta'siri va bu boradagi ilmiy muammolarga to'xtalib o'tadi.

Tadqiqotchi Alisher Navoiy asarlarini o'rganishda zamonaviy usullarning ahamiyatini metodik tavsiyalar, dars ishlanmalari vositasida ilmiy asoslaydi: "Zero, adabiy ta'lim so'z orqali o'rganish, so'z orqali o'qitish va so'z orqali anglash, his qilish deya e'tirof etilsa, faol o'quv muhitida so'z orqali o'zaro ta'sir etish tabiiydir. O'quvchilarni shunchaki o'qishga emas, o'qib o'rganishga, o'rgatib o'rganishga, o'rganib o'rganishga hamda shu ma'lumotlarni amalda hayotga tadbiq etishga undaydigan zamonaviy usullarga asoslangan pedagogik jarayon maqsadga yo'naltirilgan tizimli yondashuv amaliyotidir".

Maktab tajribalarimiz va kuzatishlarimiz davomida amaldagi dastur va darsliklardagi quyidagi muammolar kuzatildi:

- 1) yozuvchilar va ularning asarlari haqidagi ma'lumotlarning yetarli emasligi;
- 2) o'quvchining mustaqil fikrlashi uchun imkoniyatlarning cheklangani;
- 3) XXI asr ko'nikmalari integratsiyasi hisobga olinmaganligi.

Rivojlangan davlatlarning adabiyot o'qitish tajribasi o'rganilganda:

- 1) badiiy matnni mustaqil tahlil va talqin qilishga o'rgatish;





2) adabiyot nazariyasiga oid tushunchalarni badiiy matn bilan bog'lab o'rganish;

3) spiralsimon yondashuv;

4) fanlararo integratsiya;

5) XXI asr ko'nikmalari integratsiyasiga e'tibor qaratilganligi aniqlandi.

Tavsiya etilgan adabiyot fani bo'yicha Milliy o'quv dasturi va darsliklarda:

1) badiiy matnni mustaqil tahlil va talqin qilishga o'rgatish;

2) uch bosqichli yondashuv: o'qishdan oldingi, o'qish davomidagi va o'qishdan keyingi topshiriqlar;

3) har bir o'qishning o'z maqsadi mavjudligi kabi jihatlarga e'tibor qaratilgan.

Fanlararo integratsiyada boshqa fanlardan olingan bilimlar badiiy matnni chuqurroq anglashga yordam berishi; adabiyot va boshqa fanlar integratsiyasi yozma nutq, tanqidiy va kreativ fikrlash singari muhim ko'nikmalarni rivojlantirish muhim vazifa sanalishi nazarda tutilgan.

XXI asr ko'nikmalari:

1) kommunikatsiya (muloqot);

2) muammoga yechim topish;

3) tanqidiy fikrlash (tahlil);

4) kreativ fikrlash kabilarga diqqat tortilgan.

Ma'lumki, avvalgi o'quv dasturi mazmuni 90% nazariyadan iborat bo'lib, o'qitish metodikasi yodlatishga yo'naltirilgan edi. Yangi Milliy o'quv dasturi mazmuni 50% nazariya, 50% amaliyotdan iborat tarzda yaratildi. Bundan maqsad shuki, o'quvchining mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Avvalgi o'quv dasturda baholash faqat eslab qolgan bilimlar hajmini aniqlagan. Yangi dastur asosida o'quvchilarda shakllangan ko'nikmalar baholanadi.

Endi aynan fanlar chiziqli tartibda emas, balki spiralsimon, ya'ni mavzular takroriy emas, bir-birini mantiqan davom ettiruvchi hamda soddadan murakkabga tomon yo'naltirilgan tarzda o'qitiladi.

Ilmiy izlanishlarimiz ham ana shu farmon asosida amaliyotda sinaldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib xalqaro baholash dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga





yo‘naltirilgan ta‘lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

PISA xalqaro baholash dasturi Respublikamiz ta‘lim tizimining ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Bu borada respublikamiz miqyosida talaygina izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, tadqiqotchilar M. Asqarova, G. Rahmatova, G. To‘g‘ayeva, D. Rabbonayeva, Q. Azizova, G. Yunusova, Z. Boltayeva, D. Ro‘ziyeva, N. Egamqulova, S. Ro‘ziyeva, M. Qo‘chqorovalarning ilmiy faoliyatida o‘ziga xos izlanishlar kuzatilmoqda.

PISA o‘quvchilarning kreativ fikrlashlarini baholovchi xalqaro dasturini ishlab chiqishdan kutilgan natijalar:

PISA tadqiqotlarida faqatgina 15 yoshli o‘quvchilar ishtirok etadi. Mazkur xalqaro loyiha faqat ijodkor yoshlarni ajratib olishnigina maqsad qilmaydi, shu bilan birga o‘quvchilarning g‘oyalarni qidirish hamda ifodalashda ijodiy fikrlash qobiliyatini, bu qobiliyatni rivojlantirish yondashuvi, maktab faoliyati va ta‘lim tizimining boshqa xususiyatlari bilan qanday bog‘liqligini tavsiflaydi.

Bu tadqiqotning asosiy maqsadi o‘quvchilarning ta‘lim siyosati va pedagogikada yaqqol natija beradigan kreativ fikrlash ko‘nikmasini rivojlantiruvchi, o‘quvchilar tomonidan ham sinfda, ham sinfdan tashqari bajariladigan mashg‘ulotlarga yaqin bo‘lish bilan birga, ijodiy yutuq va muvaffaqiyatni ta‘minlaydigan darajani aniqlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Russkaya khudozhestvennaya literatura kak istochnik gumanisticheskoy traditsii pedagogicheskoy deyatelnosti. URL: https://vuzlit.ru/725894/russkaya_hudozhestvennaya_literatura_istochnik_gumanisticheskoy_traditsii_pedagogicheskoy_deyatelnosti
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent: 2017 yil, 6-son, 70-modda.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent: 2017, 38-son, 1029-modda.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”





- qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.05.2018 y., 09/18/376/1257-son. URL: https://lex.uz/pages/forpda.aspx?lact_id=3743182
5. "Yoshlar va xotin-qizlar manfaatlari: Mirziyoyev besh tashabbus bo'yicha yig'ilish o'tkazdi". URL: <https://oz.sputniknews-uz.com/society/20190403/11146250/Yoshlar-va-xotin-qizlar-manfaatlari-Mirziyoev-besh-tashabbus-boyicha-yiqilish-otkazdi.html>
6. "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3721-sonli qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.05.2018-y., 07/20/3721/0851-son.
7. Hasanova A. Yuqori sinflarda Alisher Navoiy asarlarini o'rganish: ped. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1974. – 176 b.

